Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320905

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Har tomonlama farovonlikka e'tibor qaratish orqali biz doimo o‘zgarib turadigan dunyoda qiyinchiliklarni engib o‘tishga va imkoniyatlardan foydalanishga qodir bo‘lgan chidamli jamoalarni qurishimiz mumkin

# AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Axunova Shoxista Nomanjanovna
FarPI, dotsent
sh.axunova@ferpi.uz
A’zamjonova Farangiz Abdubanob qizi
Far,PI talaba

**Annotatsiya:** Ushbu tezis aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish uchun tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va daromadlarni oshirishning muhimligini ko‘rib chiqadi. Asosiy e'tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratiladi: tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini ta'minlash, barqaror bandlikni ta'minlash,yuqori daromad topish imkoniyatlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish choralari hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik, aholi daromadi, tadbirkorlikka o‘tgatish, kambag‘allikni qisqartirish, aholi farovonligi.

Aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning muhim sharti sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning huquqiy va manfaatlarini ta’minlash, barqaror bandlikni va yuqori daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Ushbu tezisda biz tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni, uning aholi turmush darajasiga ta'siri va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari hamda bu boradagi milliy va xalqaro tajribalar haqida muhokama qilamiz. Tadbirkorlik tizimini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish va tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish orqali, aholining ish bilan bandligini ta'minlash va daromad darajasini oshirish mumkinligini ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, tadbirkorlik muhitini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va uning kambag‘allikni kamaytirishdagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

O‘zbekistonda mehnat bozori siyosati va mehnatga haq to‘lash siyosatini takomillashtirishsiz bugungi kunda kambag‘allik muammosini samarali hal etib bo‘lmaydi. Aholiga manzilli ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish zarurligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi sharoitda ushbu dasturlar ko‘p jihatdan mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismidagi yuqori darajadagi kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan. Agar davlat tomonidan belgilangan siyosati aholi bandligini oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va mavjudlarini saqlab qolishning tashkiliy-moliyaviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, kambag‘allik darajasini real pasaytirishga erishiladi. “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-143-son, 23.09.2024 y.) e’lon qilindi. Unda 2024 yilning qolgan davrida 500 ming, 2025 yilda 1 million nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi. Kambag‘allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobiy natijalar va to‘plangan milliy tajriba hamda ilg‘or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o‘zi va farzandlari kelajagi uchun mas’uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan “Kambag‘allikdan



Published: 23.12.2024
**Cite this article:** Axunova Shoxista Nomanjanovna, A’zamjonova Farangiz Abdubanob qizi (2024). Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini oshirish masalalari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320905
*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

farovonlik sari” dasturi amalga oshiriladi hamda dasturini amalga oshirish bo‘yicha respublika komissiyasi tashkil etiladi. Dastur 2024 yil 1 noyabrdan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas’uliyat” tamoyili asosida amalga oshiriladi:

a. barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish;
b. ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish;
c. kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish;
d. ijtimoiy xizmatlardan foydalanish;
e. yashash sharoitlarini yaxshilash;
f. davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish;
g. davlat organlari xodimlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish[1].

O‘zbekistonda ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qilishi, 2024-yilda yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib kelishi ma’lum qilindi. “Mening biznesim” platformasi, “Biznesga birinchi qadam” bank kartalari joriy etilishi ish bilan band aholining faoliyatini kengaytirishga qulaylik yaratishi ta’kidlangan[2].

Prezident 4-oktabr kuni aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi davlat siyosati samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Hujjatda ta’kidlanishicha, sentabr oyida qabul qilingan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi zimmasiga yuklatilgan.Qaror bilan Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tugatilib, uning vazifa va funksiyalari Bandlik vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida Bandlik vazirligi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: mehnat bozori, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish; aholi bandligini ta’minlash dasturlarini shakllantirish, bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish va ishsizlarni ish bilan ta’minlash;kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish, malakasini baholash;munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat standartlariga rioya etilishini o‘rganish, mehnat huquqini ta’minlash va mehnatni muhofaza qilish.

Aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirish maqsadida Bandlik vazirligiga:uch oy muddatda ijobiy natijalar ko‘rsatgan “100 ta eng samarali mikroloyiha” katalogini tuzish va uni hokim yordamchilari orqali respublikaning barcha hududlarida ommalashtirish choralarini ko‘rish;2025-yil 1-dekabrga qadar 50 ta tumanda, 2026-yilda qolgan tumanlarda 50–100 gektardan ijara asosida ajratilgan qishloq xo‘jaligi yerlarida sanoatlashgan plantatsiya, bog‘ va uzumzorlar tashkil etish; 2025-yil 1-dekabrga qadar ijara asosida yer maydonlari ajratilgan tumanlarda kamida 40 gektar maydonda “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili bo‘yicha yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha namunaviy loyihalarni amalga oshirish; 2026-yil 1-avgustga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda kamida ikkitadan ko‘p qavatli kompleks sanoat markazlarini qurish va tadbirkorlarni joylashtirish loyihalarini amalga oshirish; 2025-yil 1-dekabrga qadar sanoat kirib bormagan mahallalarda 1000 ta, 2026-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va kichik ishlab chiqarish bo‘yicha 2000 ta loyihani ishga tushirish; har yili bevosita mahallalarda kamida 500 ta hunarmandchilik va kasanachilik loyihalarini amalga oshirish va kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish; 2025-yil 1-dekabrga qadar salohiyatli tadbirkorlar, eksportchi va brokerlar bilan birgalikda 2000 ta mahallada, 2026-yil oxiriga qadar respublikaning qolgan mahallalarida yetakchi tadbirkorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish; har yili 50 ming nafar o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarni bosqichma-bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish choralarini ko‘rish topshirildi.

Shuningdek, vazirlikka 2025-yil 1-yanvardan boshlab “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari negizida kasbiy ko‘nikmalar markazlarini tashkil etish va ularda ish beruvchilar talablariga moslashuvchan tezkor kurslarni tashkil etish topshirildi. 2025-yil 1-maydan boshlab xalqaro tan olingan ta’lim dasturlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Bitiruvchilarga xorijda tan olinadigan sertifikatlar beriladi.

2026-yil 1-iyulga qadar xorijda tan olinadigan malaka sertifikatlarini berishni tashkil etadigan Kasbiy malakani baholovchi markaz tashkil etiladi. Shuningdek, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qurilayotgan obyektlarda ishchilar sonining loyiha-smeta hujjatlari hamda pudrat ishlari hajmiga muvofiqligi yuzasidan nazorat tadbirlari o‘tkazishga ruxsat etiladi.

Bandlik vazirligiga 2025-yil 1-aprelga qadar Milliy vakansiyalar bazasida mamlakatda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari, talab yuqori bo‘lgan kasblar va mutaxassislarni aniqlash, taklif etilayotgan ish haqi, malaka talablari, mehnat sharoitlari va ish vaqti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan platformani ishga tushirish topshirildi[3].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz.

1. Tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish: biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish jarayonlarini soddalashtirish, kichik va o‘rta biznes uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, innovatsion startaplar uchun grantlar va subsidiyalar ajratish, biznes inkubatorlar va akseleratorlar tarmog‘ini kengaytirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘qitish dasturlarini joriy etish.

2. Tadbirkorlar huquq va manfaatlarini ta'minlash:xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash,tadbirkorlar huquqlarini himoya qiluvchi ombudsman institutini kuchaytirish,litsenziyalash va ruxsat berish tizimini soddalashtirish,tekshiruvlar sonini kamaytirish va ularning shaffofligini oshirish,sudlar mustaqilligini ta'minlash va biznes nizolarini hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

3. Barqaror bandlikni ta'minlash:mehnat bozori ehtiyojlariga asoslangan kasb-hunar ta'limi tizimini yaratish,ishsizlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish, ish beruvchilar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish, masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlar bandligini ta'minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish.

4. Yuqori daromad topishga erishish:minimal ish haqini bosqichma-bosqich oshirish,yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish,raqamli iqtisodiyot va IT sohalarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash.

5. Kambag‘allikni qisqartirish:kambag‘al oilalarga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, mikrokreditlash dasturlarini kengaytirish,qishloq joylarida infratuzilmani yaxshilash, sog‘liqni saqlash va ta'lim xizmatlarining sifati va qamrovini oshirish,energiya samaradorligi va arzon uy-joy dasturlarini amalga oshirish.

6. Institutsional islohotlar:davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish,korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish, raqobat muhitini yaxshilash uchun monopoliyalarga qarshi qonunchilikni takomillashtirish, moliyaviy xizmatlar va bank tizimini rivojlantirish.

Tadbirkorlikning iqtisodiyot va aholi farovonligi uchun muhimligi shubhasizdir. Ushbu soha aholining barqaror bandligini ta'minlash va daromad darajasini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish orqali, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash

mumkin. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bu borada qo‘llaniladigan siyosat va chora-tadbirlar iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, tadbirkorlikni rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish har bir davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish va unga ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotning turli sohalarini faollashtirish va aholi daromad darajasini oshirish bilan birga, kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatning umumiy farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. https://gov.uz/oz/bv/news/view/22543 24.09.2024
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezident matbuot xizmati https://demokrat.uz/2024/01/08/ozbekistonda-rasmiy-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi 8.01.2024
3. Bandlik vazirligi kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/07/poverty/ 7.10.2024
4. G‘oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. - Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2005 yil, — B. 12.
5. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. – 2022. – S. 129-133.
6. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. - 2022. -S. 129-133.
7. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. -Fan ziyosi- nashriyoti, 2021 y.

## BUXORO VILOYATIDA AGROSANOAT MAJMUASINI KLASTERLASH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligidagi kabi sanoatning paxta-to‘qimachilik kichik tarmog‘ida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsiyalar va investitsiyalarni jalb qilish, kelajakda ushbu tarmoqni xalqaro raqobatga chidamli, yangi chaqiriqlarga tez moslashuvchi va barqaror o‘suvchi tizimga aylantirish imkonini beradi. Shu bois agrosanoat majmuasida, xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlarida zamonaviy boshqaruv usullari va samarali boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2018-2023 yillar statistik ko‘rsatkichlari bir gektardan olinadigan paxta hosildorligi 26 sentnerdan 34 sentnergacha oshganligi, ayrim viloyatlarda 40 sentnergacha yetganini ko‘rsatmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev klasterlardagi yutuqlar haqida gapirar ekan, paxta tolasini qayta ishlash hajmi 2,5 barobarga oshib, 100 foizga yetganini, ip-kalava ishlab chiqarish 2,2 barobarga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish esa 5 barobarga ko‘payganini qayd etdi. [1]

Professor M.A. Rahmatov respublikamizda barcha yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan klasterlar soni 510 taga yetib, shundan qariyb 100 tasi paxta-to‘qimachilik